

**YUQORI SINIF O'QUVCHILARI SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA  
TEST TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH**

*Isaqova Gulzoda Anvarjon qizi*

*Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi*

*E-mail: [isagovagulzoda1992@gmail.com](mailto:isagovagulzoda1992@gmail.com)*

**Annotatsiya:** maqolada o'zbek tiliga e'tibor, "Davlat tili haqida"gi qonunni hayotga tatbiq qilish, bu borada yo'l qo'yilayotgan nuqsonlar, savodxonlik masalalari, o'quvchilar savodxonligini oshirish, bu borada olib borilgan tadqiqotlar, erishilgan muvaffaqiyatlar, savodxonligini oshirishda oilaning ta'siri, ona tilini sifatli o'qitilishi bilan bog'liq kelgusidagi vazifalar, savodxonlik masalasiga e'tiborni kuchaytirish hamda ushbu soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashga oid masalalar yoritiladi.

Olib borgan tadqiqotimiz davomida yuqori sinf o'quvchilari savodxonligini oshirishda test texnologiyasidan soydalanish, ularning afzalliklari xususida fikr yuritiladi. O'quvchi ma'naviyatini rivojlantirishda, bilim saviyasini hamda savodxonligini oshirishda ota-onalarning madaniy saviyalari hamda mas'uliyatlari muhim ahamiyatga egaligi izohlanadi.

**Kalit so'zlar:** savodxonlik, qo'shma gap, bog'lovchilar, bosh gap, ergash gap, sintaktik tahlil

**Annotation:** The article focuses on the Uzbek language, implementation of the law "On the State Language", shortcomings in this regard, issues of literacy, improving students' literacy, research conducted in this regard, successes achieved, in improving literacy the influence of the family, the future tasks related to the quality teaching of the mother tongue, increasing attention to the issue of literacy, and issues related to the training of highly qualified personnel in this field will be covered.

In the course of our research, we will think about the advantages of using test technology in improving the literacy of high school students. It is explained

*that the cultural level and responsibilities of parents are important in developing the student's spirituality, increasing the level of knowledge and literacy.*

**Key words:** *literacy, conjunctions, prepositions, adverbs, syntactic analysis*

Til ta'limining asosiy talablariga ko'ra o'quvchi mavzu bo'yicha belgilangan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash uchun darslikdagi mashq va topshiriqlarni bajarishda mustaqil ijodiy fikrlashi, kuzatishi, umumiylikni topishi, farqlarni aniqlashi, qiyoslashi, tasniflashi, xulosa chiqarishi, aloqadorlikni ochishi, amaliyotda qo'llay olishi kerak. O'quvchilarda savodxonlikni oshirishda mustaqil ishlash va ijodiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish uchun interfaol metodlardan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Bunda o'quvchilarning barchasi dars jarayoniga jalb etiladi, o'qituvchi ularning topshiriqni bajarish jarayonidagi ishtirokiga ko'ra mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini aniqlab oladi. Ana shunday interfaol metodlardan biri **“Teskari test”** metodidir.

Test so'zi inglizcha so'z bo'lib, sinash, tekshirish demakdir. Shaxsning aqliy o'sishini, mintalitetini, qobiliyatini, irodaviy sifatleri va boshqa xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa masala, topshiriq, misol, jumboq, syujetli rasm yoki shakl test deb ataladi.<sup>1</sup>

Test metodlarining qimmati tajribaning ilmiy darajasiga, tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, yig'ilgan ma'lumotlarning ob'ektivligi va ularni ilmiy tahlil qila bilishga bog'liqdir. Testda savol beriladi va uning javobi variant shaklda bo'ladi. Savolning javobini variantlardan birini tanlash orqali aniqlanadi.

“Teskari test” metodida esa testing javobi variant shaklda berilgan bo'lib, shu variantlarga asosan savol tuziladi. Bu metod javobga nisbatan qanday fikrlar borligini ko'rsatadi va o'quvchining tezkorligini oshiradi. Quyida qo'shma gap mavzusini “Teskari test” metodidan foydalangan holda o'zlashtirilishi ko'rsatib o'tiladi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi . 2000-2005

Qo'shma gap sintaksisning alohida bir struktur-semantik birligidir. Ikki yoki undan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik va ohang jihatidan birikuvidan tuzilgan gap qo'shma gap deyiladi. Qo'shma gap sodda gapdan tuzilishiga va fikr ifodalash xarakteriga ko'ra farqlanadi. <sup>2</sup>

Sodda gap tarkibida bitta ega va kesim birligi ishtirok etsa, qo'shma gap tarkibida ikki va undan ortiq ega va kesim birligi qatnashadi. M: *Eshik sekin ochildi-yu, Qalandarovning yuzi ko'rindi*. Birinchi gapda *eshik* ega, *ochildi* kesim. Ikkinchi gapda *esa yuzi* ega, *ko'rindi* kesim. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'zaro bog'lovchilar, yuklamalar va fe'l shakllari hamda ohang orqali bog'lanadi. Mazmun munosabati va bog'lovchi vositalarning qo'llanishiga ko'ra qo'shma gaplar uch xil bo'ladi: bog'langan qo'shma gaplar, ergashgan qo'shma gaplar va bog'lovchisiz qo'shma gaplar.<sup>3</sup>

Teskari test metodi:

1. ....?

A) Mashrab shuni yaxshi biladiki, o'rtog'i uni aldamaydi

B) Yo yerning kuchi yo'q, yo urug' yaxshi emas

C) Kim ichkilikdan madad istasa, o'sha go'r atrofida bo'ladi


D) Bu uyda na Ashirdan, na Saodatdan darak bor edi

(savol variantlari quyidagicha bo'lishi mumkin)

1. Bog'langan qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.

2. Quyidagi javoblarning qaysi birida qo'shma gap berilmagan?

3. Qismlari ayruv bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gapni aniqlang.



Quyidagi javoblarning qaysi birida shu qolipga mos keluvchi qo'shma gap berilgan?



Quyidagi javoblarning qaysi birida shu qolipga mos keluvchi qo'shma gap berilgan?

Teskari test metodi bir tushunchaga kengroq yondashishda, kam vaqt

<sup>2</sup> Ҳозирги ўзбек адабий тили Т.: Ўқитувчи, 1987. 159-6

<sup>3</sup> Қўшма гап синтаксиси асослари Т.:Фан,1985.  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

ichida katta natijaga erishishga yordam beradi.

Birinchi savolga to'g'ri javob **B** varianti.

Bog'langan qo'shma gap qismlari teng bog'lovchilari, -u, -yu, -da yuklamalari hamda bo'lsa, esa so'zlari yordamida bog'lanadi. **A** javobda qo'shma gap qismlari o'zaro - **ki** yuklamasi bilan bog'lanib kelgan. –ki yuklamasi ergashgan qo'shma gap qismlarini bog'lashga xizmat qiladi, shuning uchun **A** variantini to'g'ri deb bo'lmaydi. **C** javobning xatoligi ham bog'lovchi vositada. Unda **-sa** shart mayli qo'shimchasi bog'lashda ishtirok etyapti. –sa shart mayli qo'shimchasi ham ergashgan qo'shma gapni bog'lashga xizmat qiladi. **D** javobga to'xtaladigan bo'lsak, javobdagi gapni qo'shma gap sifatida olinmaydi. U gap sodda gap hisoblanadi. *Bu uyda na Ashirdan, na Saodatdan darak bor edi.* Ushbu gapda *bor edi* kesim, *darak* ega, *uyda* so'zi o'rin holi, *Ashirdan* va *Saodatdan* so'zlari vositali to'ldiruvchi vazifasida kelyapti. Gapda ishtirok etgan *na...na* bog'lovchisi gaplarni emas, uyushiq vositali to'ldiruvchilarni bog'lashga xizmat qilib kelgan. Gap bitta kesimlik belgisiga ega bo'lganligi uchun sodda gap hisoblanadi.

Ikkinchi savolga to'g'ri javob o'z-o'zidan **D** variant deb olinsa bo'ladi. Sababi yuqorida **D** javobdagi gapni sodda gap ekanligini sintaktik tahlil qilish orqali izohladik. Qo'shma gap berilmagan javobga **D** varianti to'g'ri keladi. Qolgan variantdagi gaplarning barchasi qo'shma gap.

Uchinchi savolga muqobil javob **B** javob.

Bog'lovchilar gapdagi vazifasiga ko'ra ikki turga bo'linadi: teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilar. Teng bog'lovchilar esa o'z navbatida

- Biriktiruv bog'lovchisi;
- Zidlov bog'lovchisi;
- Ayruv bog'lovchisi;
- Inkor bog'lovchisi

kabi guruhlarga bo'linadi.<sup>4</sup>

Narsa, voqea- hodisalarni boshqalaridan ajratish yoki ularning galma-gal

---

<sup>4</sup> Ўзбек тили грамматикаси. II.т Синтаксис.Т.:Фан,1976.11-6


sodir

bo'lishini ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi yo, yoki, yo... ,yo, yoxud, dam... , dam, goh... , goh, xoh... , xoh, ba'zan... , ba'zan kabi so'zlari ayruv bog'lovchilari hisoblanadi. <sup>5</sup>Yo yerning kuchi yo 'q, yo urug' yaxshi emas qo'shma gapda **yo... , yo** ayruv bog'lovchisi ishtirok etgan. Ushbu qo'shma gap ikkta sodda gapdan tashkil topgan bo'lib, birinchi sodda gapning egasi *kuchi*, kesimi *yo 'q* so'zlari. Ikkinchi gapning egasi esa *urug'*, *yaxshi emas* kesim.

To'rtinchi savolga **C** javob to'g'ri keladi.

Ergashgan qo'shma gaplar teng bo'lmagan komponentlardan – bosh va ergash gaplardan tashkil topadi. Bosh gap mazmun va strukturasi ko'ra ancha mustaqil tuzilgan bo'lib, ergash gap tomonidan izohlanadi. Mazmuni izohlanayotgan gap bosh gap, bosh gap mazmunini izohlayotgan gap esa ergash gap deyiladi.

Ergash gaplar bosh gapga quyidagi vositalar yordamida bog'lanadi:



---

<sup>5</sup> Ҳозирги ўзбек адабий тили, I қисм, Педагогика институтларининг филология факултети талабалари учун дарслик, Т.: Ўқитувчи, 1980. 159-б

Chizmada ko'rsatilganidek ergash gap yumaloq, bosh gap to'rtburchak shakl bilan ifodalanadi. *Kim ichkilikdan madad istasa, o'sha go'r atrofida bo'ladi* gapida birinchi gap ergash gap, ikkinchisi gap bosh gap hisoblanadi. Ergash gap bosh gapga -sa shart mayli vositasi yordamida bog'langan. Yuqorida ko'rsatilganidek -sa shart mayli shakli qo'shimchasi faqat ergash gap tarkibida keladi.

Beshinchi savolga **A** javob to'g'ri keladi.

*Mashrab shuni yaxshi biladiki, o'rtog'i uni aldamaydi.* A javobda berilgan ushbu gapda birinchi gap bosh gap, ikkinchi gap esa ergash gap hisoblanadi. Ergash gap bosh gapga -ki yuklamasi yordamida bog'lanib kelyapti. -ki yuklamasi ham faqat bosh gap tarkibida kelishi ko'rsatib o'tildi.

“Teskari test” metodidan nafaqat qo'shma gap turlarini ajratishda, balki o'quvchilarga ko'p holatlarda qiyinchilik tug'diruvchi ergashgan qo'shma gapning gap bo'laklarining ishtirokiga ko'ra turini ham aniqlashda qo'llasa bo'ladi.

Ergashgan qo'shma gaplarda bosh gapning kesimi qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganidan qat'iy nazar shaxs qo'shimchalarini qabul qiladi. Ergash gap esa mazmun va strukturasi ko'ra bosh gapdan boshqacharoq tuzilib, bosh gapning biror bo'lagini yoki bosh gapni yaxlitligicha izohlaydi. Ergash gapning kesimi shaxs qo'shimchalarini doimo qabul qilishi shart emas. Ergashgan qo'shma gap komponentlarini tutashtiruvchi grammatik vositalar ergash gapning kesimi sostavida qo'llanadi. Qo'shma gapni tashkil etgan komponentlarning mazmunini va ularni tutashtiruvchi vositalarni hisobga olgan holda ergash gaplar quyidagi turlarga ajratiladi: <sup>6</sup>

- 1)ega ergash gapli qo'shma gap;
- 2)kesim ergash gapli qo'shma gap;
- 3)to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap;
- 4)aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap;
- 5)hol ergash gapli qo'shma gap

Ergashgan qo'shma gapning yuqoridagi turlarini ajratish uchun aksariyat

---

<sup>6</sup> Ҳозирги ўзбек адабий тили Т.: Ўқитувчи, 1987. 187-6

hollarda bosh gap tarkibida keluvchi ko'rsatish olmoshiga qarab aniqlanadi.

Teskari test metodi:

2. ....?

A)Shuni angladimki, inson qobilyati cheksiz ekan.

B)Biz shunday kutubxona quraylikki, butun el qoshida manzur va mo'tabar bo'lsin.

C)Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi.

D)Shunisi quvonarliki, sinfdagi barcha o'quvchilar bir-biri bilan juda ahil ekan.

(savol variantlari quyidagicha bo'lishi mumkin)

1.Quyidagi javoblarning qaysi birida ega ergash gapli qo'shma gap berilgan?

2.Bosh gapdagi to'ldiruvchini izohlab kelgan ergashgan qo'shma gapberilgan qatorni aniqlang.



Quyidagi javoblarning qaysi birida shu qolipga mos kelmaydigan qo'shma gap berilgan?

4. Quyidagi javoblarning qaysi birida aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap berilgan?

5.Hol ergash gapli qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.

Savollar qatorini shu kabi yanada kengaytirib borish ham mumkin.

Xullas, test texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarda mavzuga oid testlarga javob berish bilan bir qatorda, o'zlari ham qo'shimcha savollar tuza olishlari,savodxonlik darajalarining ortishi va javoblarning to'g'ri yoki noto'g'riligini erkin tahlil qila olish imkonini beradi. Bu metoddan qo'shma gaplar mavzusidan tashqari barcha ona tili darslarida foydalanish o'quvchilarda mantiqiy fikrlash va ijodiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Усмон О, Авизов Б.Ўзбек тили грамматикаси. II.Т Синтаксис.—Т.: Фан,1975. 11-б.

2. Турсунов У, Мухторов Ж, Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили, I қисм, Педагогика институтларининг филология факултети талабалари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1980. 159-б.
3. Гуломов А, Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили –Т.: Ўқитувчи, 1987. 159-б
4. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. –Т.: Илм, 2004. . 68-б.
5. Абдурахмонов Ғ. Қўшма гап синтаксиси асослари –Т.: Фан, 1985.
6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi . 2000-2005
7. Авлаев О.У Таълим методлари ўқув услубий қўлланма. –Т.: Наврўз, 2007.